ALISHER NAVOIYNING IJOD KONSEPTSIYASIDA NAQSHBANDIYA TARIQATINING ROLI

Gavhar Muftullayeva
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: gavharmuftullaeva@gmail.com
Tel: (99) 412 4643

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodi va adabiy-estetik qarashlarining mohiyatini belgilovchi omillardan biri hisoblanuvchi tasavvuf bilan aloqador, xususan naqshbandiya tariqati, shayxlari bilan aloqador va bog‘liq jihatlari yoritiladi.
Kalit so‘zlar. Bahouddin Naqshband, Xoja Muhammad Porso, ruhiy kamolot, so’fiylar timsoli, falsafiy qarashlar, mo‘tadillik, ma’noning suvratdan ustunligi.
Abstract. In this article, one of the factors that determine the essence of Alisher Navoi's creativity and literary-aesthetic views is related to Sufism, in particular, related to the Naqshbandi sect and its sheikhs.
Keywords. Bahauddin Naqshband, Khwaja Muhammad Porso, spiritual perfection, the symbol of Sufis, philosophical views, moderation, superiority of meaning over image.
Абстракт. В данной статье один из факторов, определяющих сущность творчества и литературно-эстетических взглядов Алишера Навои, связан с суфизмом, в частности, с сектой Накшбанди и ее шейхами.
Ключевые слова. Бахауддин Накшбанд, Ходжа Мухаммад Порсо, духовное совершенство, символ суфиев, философские взгляды, умеренность, превосходство смысла над образом.

Xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik namoyondalaridan biri, Hazrat Bahouddin Naqshbandning eng yaqin shogirdi Xoja Muhammad Porso tasavvuf olamida o‘ziga xos o’ringa ega va uning asarlari, xususan, “Risolayi Qudsiya” va “Fasl ul-xitob” ruhiy tarbiya borasidagi nodir asarlardan hisoblanadi. Tasavvufiy qarashlar asarlarining tub-tubiga singib ketgan Alisher Navoiy ham so’fiylarning ibratli hayot yo’li va falsafiy qarashlaridan ma’nan bahramand bo’lgan va o‘z asarlarida ularning nomini yuksak ehtirom bilan tilga olgan. Bunday ulug’ shayxlar qatorida Xoja Bahouddin Naqshband hazratlari va u kishi asos slogan tariqat yo‘lining yetuk namoyondalari Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiylarni keltirish mumkin. Xo‘sh, Navoiy bu shaxslarni aynan nima maqsadda o‘z asarlarida hurmat bilan tilga oladi, madh etadi va o‘rni kelganda ular bilan bog‘liq hikoyatlarni keltirib o‘tadi? Shunisi aniqki, ruhiy kamolotga undovchi hazrat Navoiyning adabiy me’rosi qalbi va ruhi pok, insonning qalbini poklovchi ilohiy ishqdan bahramand zotlarning hayot yo‘lida biz o’rganishimiz kerak bo‘lgan jihatlar ko‘pligini va bularni anglay olishimiz uchun esa faqat aqlning o‘zi ojizlik qilishini o‘z-o‘zidan namoyon etadi. Ustoz N. Komilov ta’biri bilan aytganda, “…ular zohiriy jihatdan shunday, aslida esa, botiniy ma’nolari mohiyatiga ko‘ra bir xil falsafiy-tasavvufiy qarashlar silsilasiga borib taqaladigan o‘zaro uzviy aloqador asarlar bo‘lib, birini ikkinchisisiz tushunish qiyin.” [1, 149-bet] Shunday ekan, Navoiyning yuksak ehtiromiga sazovor bo’lgan ulug‘ zotlar haqida o’rganish, qolaversa, hazratning o’z asarlarida keltirgan o’rinlarni tahlil qilish orqali komillik sari yana bir odim ildamlash adabiyotshunoshlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Alisher Navoiy ijodini zohir va botin ilmi nuqtai nazaridan tadqiq etish masalasida yetuk adabiyotshunoslarimiz Ibrohim Haqqul, Suyima G‘aniyeva, Najmiddin Komilov, A. Hayitmetov, A. Qayumov, A. Rustamov, Y. Is’hoqov, S. Rafiddinovlarning alohida o‘rni bor. Xususan, tasavvuf ta’limoti, naqshbandiylik tariqati mazmun-mohiyati jihatdan Navoiy ijodi

https://wordlyknowledge.uz

bilan chambarchas bog'liqligi 1996-yilda chop etilgan Sultonmurod Olimning "Navoiy va Naqshband" nomli kitobida keng yoritilgan. S. Olim shoir ijodida naqshbandiya ta'limoti g'oyalari targ'ibining ko'rinishlari va yo'nalishlarini quyidagicha ko'rsatadi:

1. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyatini yoritish.
2. Xojagon-naqshbandiya tariqati vakillari hayoti va faoliyatini yoritish.
3. Naqshband va naqshbandiylar badiiy timsollarini yaratish.
4. Badiiy asarlarda naqshbandiya ta'limoti g'oyalarini targ'ib etish.[2]

Adabiyotshunos S. Olim ta'kidlaganidek, bu yo'nalishlarning har biri alohida tadqiqot mavzusi bo'lgulik darajada katta qamrovga ega va buni o'rganish ilm ahli oldida turgan muhim vazifalardandir. Bugungi kunga qadar yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha alohida tadqiqot deyarli yo'q. Nodir G'afforovning 1999-yilda himoya qilingan "Alisher Navoiy "Xamsa"sida so'fiylar timsoli" nomli nomzodlik dissertatsiyasida bitta bob naqshbandiya shayxlari talqini uchun ajratilgan. Tadqiqotchining ushbu ishida yoritilgan masalalar adabiyotshunos S. Olim ta'kidlagan, yuqorida keltirilgan to'rtta yo'nalishga ham mos keladi. Negaki, N. G'afforov aynan bitta bobning o'zida Xoja Bahouddin Naqshbandning hayoti va faoliyati, xojagon-naqshbandiya tariqati vakillaridan Xoja Muhammad Porso va Xoja Abu Nasr, Xoja Ahror Valiylarning faoliyatiga to'xtalish barobarida ularning ba'zilarining badiiy timsollarini ham yaratib, bu orqali naqshbandiya ta'limoti g'oyalarini targ'ib etadi. Bu yo'lda esa u rus olimlaridan Trimingem, Bertels asarlari, qolaversa, F. Qosimovning "Saltanat tayanchi", Muhammad Boqirning "Bahouddin Balogardon", Faxriddin Ali Safiyning "Rashahot ayn ul-hayot" kabi tarixiy va badiiy asarlariga yuzlanadi. Xoja Muhammad Porso va uning o'g'li Xoja Abu Nasr timsollari tahlil qilinib, tarixiy faktlar orqali Navoiy ushbu timsollarni yaratishdan asosiy maqsadi shoh Husayn Boyqaro va shahzoda Badiuzzamon orasida bo'lib turadigan nizolarni bartaraf etish, ota va o'g'il munosabatlarini yumshatish ekanligini ta'kidlaydi: "Xoja Porso va uning o'g'li Abu Nasr haqidagi hikoyat pand-nasihat doirasidan chiqib, siyosiy tus olgan. Birgina shu voqea bahonasida Navoiy Temuriylar saltanatini inqirozga olib borgan toj-u taxt talashuvi, otani o'g'ilga, akani ukaga qilich o'qtattirgan fojeani ko'tarib chiqadi. [3, 116-bet.]

Sharq mumtoz adabiyotining chuqur bilimdoni, filologiya fanlari doktori A. Rustamov "Alisher Navoiyning poetik mahorati" nomli kitobida "Mahbub ul-qulub" asarida keltirilgan jumlalarga tayanib, "Badiiy asarning elga beradigan fayzi unga lazzat bilan birga kamolot bag'ishlashdan iborat" - der ekan, zavqli shoir ta'bidan yaratilgan asar ma'rifiy, tarbiyaviy va badiiy qiymatga ega bo'lishini va shu uch talab doim bir-birini to'ldirib, bir-birini taqozo qilib turishini ta'kidlaydi.[4] Badiiy asarga aloqador bo'lgan bu uch talab nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan "Hayrat ul-abror" dostonidagi birgina Xoja Muhammad Porso va uning o'g'li haqidagi hikoyatda ham muallif tomonidan qo'yilgan aniq maqsad mavjud va bu maqsadga erishishda Navoiy biri birini taqozo etib turuvchi yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda yondashgan. A. Rustamov ta'kidicha, ijod tamoyili nuqtai nazaridan, tarbiyaviylik va ma'rifiylik xususiyati asarning ma'no tomoni, badiiy vositalari esa uning suvratini, ya'ni shakl tomonini tashkil etadi. Navoiy uchun insonning hamma faoliyatidagi kabi so'z san'atida ham ma'no birlamchi, suvrat ikkilamchidir.[4, 22-bet.] Olim Navoiy ijodining o'ziga xosligini va u yaratgan asarlarning yetuklik cho'qqisiga yetish sababini Navoiy ijodiga xos bo'lgan ikkita tamoyil orqali tushuntiradi:

1. Ma'noning suvratdan ustunligi
2. E'tidol, ya'ni mo'tadillik

A.Rustamov birinchi tamoyil orqali Navoiy asarlarida suvrat mazmunga xizmat qilishini, badiiyat nuqtai nazaridan asarning mazmun-mohiyati, tarbiyaviy tomoniga ta'sir ko'rsatmaslik Navoiy uchun bosh me'zon ekanligini ta'kidlaydi. E'tidol tamoyili orqali esa

https://wordlyknowledge.uz

Navoiy asarning mazmunida, qolaversa badiiy tomonida ham mo‘tadillikka amal qilganligini Navoiyning saxiylik va baxillik haqidagi qarashlari orqali tasdiqlaydi.[4, 24-bet.]

Xulosa shuki, Alisher Navoiy ijodiga xos bo’lgan ijodiy prinsiplar uning tasavvufiy qarashlariga birdek xizmat qilgan, ya’ni naqshbandiylik tariqati, yuqorida aytib o’tganimizdek, o‘z g‘oyalari nuqtai nazaridan mo‘tadillikka asoslangan va insonning ruhiy kamoloti, ma’nan barkamolligi har qaysi zamonda ustun turishini ko‘rsatuvchi ta’limotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. H. Комилов. Тасаввуф. – Toshkent: “Movarounnahr”- “O‘zbekiston”, 2009. – B. 149.
2. Sultonmurod Olim. Navoiy asarlarida Xoja Bahouddin Naqshband ta’rifi. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2013-yil, 3-son.
3. Гаффоров Н. Н. Алишер Навоий “Хамса”сида суфийлар тимсоли. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия. Тошкент, 1999.
4. А. Рустамов. Навоийнинг бадиий махорати. Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz